



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FONETIKA MAVZUSINI O'QITISH BO'YICHA YANGICHA YONDASHUVLAR

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasini o'qituvchisi, O'zRFA doktoranti

Valijonova Moxichexaxon Soxibjon qizi

Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 31

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.925>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Nutq, nutqiy qobiliyat, pedagogik mahorat, jargon, neogolizmlar, o'qituvchi so'z boyligi, ta'sir kuchi, talaffuz, ohang, diktsiya, nutq ifodaviyligi, nutq madaniyati, nutq texnikasi, fonetika, takt.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Fonetika mavzusini o'qitishda yangicha yondashuvlarning qo'llanilishi va natijada o'quvchilarning bilim olish samaradorligiga qay darajada ijobiy ta'sir qilishi haqida so'z boradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy mahorati, sifatleri va darsda qanday nutqdan foydalanishi haqida bir qancha o'zbek va xorijiy mamlakatdagi olimlarning nazariy va amaliy qarashlari tahlil etilgan, shu bilan birga, turli interfaol metodlar orqali yurtimizdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan qay darajada foydalanishlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaxshi bilim olishi uchun darsni qanday tashkil etish borasida bir qator tavsiyalar berilgan

**Kirish.** Jahonda globallashtirish jarayoni tezlashayotgan bir paytda tillarni arash, ularni yanada takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib til ta'limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"<sup>1</sup> qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish vao'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qiladi. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fonetika doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, uning natijasida imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, Prezidentimiz tomonidan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosidagi tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'ydi.<sup>2</sup>

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslandi. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilarning ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirildi. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantirildi. Bu vazifao'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshirildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ona tili o'qitish metodikasi taraqqiyotida mustaqil ishlar V.V. Davidov, N.G. Dayri va boshqa pedagog-psixologlar tomonidan didaktikaning asosiy konsepsiyalaridan biri sifatida qaralsa, V.K. Buryak, L.V. Jarovalar mustaqil ishni metod sifatida talqin qilinadi. B.P. Esipov, M.M. Moro, T.I. Shamovalar mustaqil ishlar o'quv faoliyatining shakli; P.I. Pidkasiy esa o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining vositasi sifatida ko'rsatdilar.<sup>3</sup> Mashhur rus olimi K. D. Ushinskiy boshlang'ich maktab

o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblandi. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatdi. Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir", - deydi u.<sup>4</sup> Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining "Kirish" qismida "Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi vao'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish vaardolash, ularga rioya qilishga o'rgatadi",<sup>5</sup> - deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga vao'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilarning so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun kattaamaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari I- sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rgandilar.<sup>6</sup>

**Tadqiqot metodologiya.** Ona tili fanida o'quvchilarning mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshirildi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yaratish, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "BBB", "FSMU" kabi dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. "Qiyoslash metodi", "Davriy metodi", "6x6x6" kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Shuningdek, ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlo savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berildi.

**Tadqiqot natijalari.** O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanildi.<sup>7</sup> Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni, xususan, adabiy talaffuz ko'nikmasini to'la

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2019 yil. 21- oktabr O'za.

<sup>2</sup> Muhammadjonova Sayyoxon (2022). Boshlang'ich sinfda fonetik mashqlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rni. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATION. № 1

<sup>3</sup> S.Matchonov, H. Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldasheva, G. Xolboyeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Ishonchli hamkor" 5- bet

<sup>4</sup> Qosimova K. Matchonov S. va boshq: Toshkent. "Noshir". 2009. 178-bet.

<sup>5</sup> Lexus.uz DTS

<sup>6</sup> Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005, №5. 5, 6, 7, 8, 9-betlar.

<sup>7</sup> A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. Toshkent. 2003.

shakllantirish, imloviy savodxonlikni rivojlantirish, soʻz boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashgaoʻrgatish uchun fonetikaga doir oʻquv materiallarining metodik taʼminotini takomillashtirish zarurati mavjud. Maktab dasturiga muvofiq, boshlangʻich sinf oʻquvchilari fonetik grafik koʻnikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yoʻq jarangli va jufti yoʻq jarangsiz undoshlar; soʻzni boʻgʻinlarga boʻlish, urgʻuli boʻgʻinni talaffuzga koʻraamaliy farqlash koʻnikmalariga ega boʻldilar. Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy oʻzlashtiradilar, ammo ular maxsus oʻqigunlariga qadar soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishni, soʻzdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf oʻquvchilarida soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, boʻgʻinlarga boʻlish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish koʻnikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, oʻz navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, soʻz tarkibida bir-biriga taʼsiri kabi ayrim elementar bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi 1-sinfda fonetika va grafikani oʻrganishga katta oʻrin beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar.

Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlandi, takomillashtirildi.<sup>8</sup> Bugungi kunda taʼlim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Psixologik nuqtayi nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida oʻquvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat samarasiz boʻlishi mumkin. Shu maʼnoda fonetika oʻqitishda ham turli noanʼanaviy dars usullaridan foydalanish lozim. Didaktik oʻyinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yoʻnalishdagi turlarga ajratildi. Ular oʻquvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, oʻlchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq oʻstirish, til oʻrganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantirdi. Shuni takidlab oʻtish lozimki, taʼlim jarayonida uyushtiriladigan didaktik oʻyinlar oʻquvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblandi. Unga dam olish yoki vaqt oʻtkazish vositasi emas, balki taʼlim beruvchi faoliyati sifatida qarash lozim.<sup>9</sup>

“Fonetika” boʻlimi qisqa qilib aytganda, nutq tovushlarini oʻrganuvchi boʻlim hisoblanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga fonetika mavzularidan foydalanib qisqa matnlar tuzish kabi topshiriqlar berilsa ular bu mavzularni yanada chuqurroq oʻrgandi. Fonetika oʻquvchilarga nimalarni oʻrgatdi?

Fonetik bilimga asoslangan holda 1- sinf oʻquvchilari savod oʻrganish davrida oʻqishni va yozishni bilib oladi. Fonetik bilim soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish (tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, urgʻuli boʻgʻinni farqlash, orfoepik meʼyorga rioya qilish) asosini tashkil etadi. Fonetik bilim morfologik va soʻz yasashiga oid bilimlar bilan birga oʻquvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin boʻladi. Fonetik bilim gapni ohangiga koʻra toʻgʻri aytish, logik urgʻu va gap qurilishidagi toʻxtamlarga rioya qilish uchun zarur. Soʻzning tovush

tomonini bilish uning maʼnosini tushunish va nutqda ongli qoʻllash uchun muhimdir.

Oʻqituvchilarning boshlangʻich taʼlimda fonetika darslarini oʻtishida metodlar va qiziqarli oʻyinlardan foydalanishi darsning samarali oʻtishini taʼminlaydi. Masalan, “Boʻgʻin” mavzusi darsida “Keyingi boʻgʻini top” metodi qoʻllanilsa oʻquvchilarning boʻgʻin nima ekanligini, uning turlarini va eng asosiy darsni qiziqarli oʻtilishi va oʻrgangan bilimlarni takrorlash imkoniyatini beradi. “Tutuq belgisi” metodini boshlangʻich sinflarda qoʻllab koʻrilganda ularda tutuq belgisi haqidagi maʼlumotlarni qanchalik oʻzlashtirishganini koʻramiz. Bu metod orqali tutuq belgisi qatnashgan xalq maqollarini qanchalik koʻp bilishlarini sinash mumkin. Bunda oʻquvchilarda ikki jamoada ishlash orqali qiziqish, energiya paydo boʻldi va bolalarning oʻtilgan mavzularga nisbatan bilimlari yanada ortdi.

**Xulosa va takliflar.** Maʼlumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga boʻlinadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni oʻquvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan erkin ravishda oʻtadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, baʼzan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) boʻgʻin hosil qilish xususiyati (unli tovushlar boʻgʻin hosil qiladi, undosh tovushlar boʻgʻin hosil qilmaydi).

Oʻquvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yoʻl qoʻymaslik, aksincha, 1-sinfdan oʻqib bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq aʼzolarining vaziyatini kuzatish koʻnikmasini oʻstirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlar oʻzlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta oʻzlashtirishga imkon berishi bilan birga, oʻquvchilarning aqliy qobiliyatini oʻstirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga oʻrganadi.

Oʻquvchi faoliyatini yuqori darajadagi koʻrsatkichi, oʻquv-biluv faoliyatini oʻzi tashkil etishi, iroda va faoliyatning oʻquvchi ongining predmetiga aylinishidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, taʼlim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, oʻquv-tarbiyaviy jarayon yaxlitligini taʼminlashi lozim. Innovatsion texnologiyalarni taʼlim jarayoniga joriy etish, taʼlim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylantirildi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida oʻquvchi nutqini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashgaoʻrgatish, bugungi globalashuv va jamiyat taraqqiyoti talabi darajasiga mos keladigan isteʼdodli, iqtidorli, mulohazali, dunyo qarashi keng ijodiy fikrga ega boʻlgan komil insonni tarbiyalashni taqozo etadi. Shunday ekan, maktablarda boshlangʻich sinflarda ona tili fonetika darslariga muvofiq keladigan samarali usullarni belgilash va ularni amalga oshirishda oʻquvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, taʼlim jarayonini toʻgʻri tashkillashtirish oʻqituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent shahri,2019 yil. 21- oktabr OʻZA.
2. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha yangi tahrirdagi davlat taʼlim standarti // Boshl. taʼl. jurnali. Toshkent, 2005, №5. 5, 6, 7, 8, 9-betlar.
3. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi va imlosi. Toshkent. 2003.
4. A. Gʻulomov, M. Qodirov, M. Emazarova, A. Bobomurodova, N. Alavutdinova, V. Karimova. Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent-2012. 144-bet.
5. B. Maʼqulova, T. Adashboyev. Kitobim- oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari oʻqish kitobi). Toshkent. “Oʻqituvchi” 1999.

6. QosimovaK. Matchonov S. va boshq: Toshkent. “Noshir”. 2009. 178-bet.
7. S.Matchonov, H. Bakiyeva, X. Gʻulomova, Sh. Yoʻldasheva, G. Xolboyeva. Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent. “Ishonchli hamkor” 5- bet
8. <https://lex.uz/Davlat> taʼlim standarti)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich> sinfda fonetik mashqlarni oʻqitishda innovatsion texnologiyalarning omi 1/viewer
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich> sinflarda fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari/ viewer

<sup>8</sup>B. Maʼqulova, T. Adashboyev. Kitobim- oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari oʻqish kitobi). Toshkent. “Oʻqituvchi” 1999.

<sup>9</sup>Jumakulova M. X. “Boshlangʻich sinflarda fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari” maqolasi.